Korruptsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2021 yil davri uchun
HISOBOT

O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga 2021 yil davomida jami 2 ta murojaat kelib tushgan, bulardan:

1. 2021 yilning 25 oktyabr kuni fuqaro R. Inomov tomonidan yozilgan murojaat O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga kelib tushdi, belgilangan tartibda Agentlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limi 1-toifali mutaxassisi O. Dustmuxamedov hamda “UzTest” DM komplaens nazorati xodimi R. Yunusov bilan hamkorlikda murojaatni o‘rganib chiqish natijasida quyidagilar aniqlandi.

Mazkur murojaat bo‘yicha agentlik tomonidan O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasiga asosan murojaat qiluvchini eshitishni tashkil etish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida, ushbu murojaatning “Jo‘natuvchi manzili” qismiga Jizzah shahri,“Zargarlik” mahallasi, 27-uy, 14-xonadon deb yozilganligi ma’lum bo‘ldi.

O’zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentyabr kungi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, murojaatning joiyga chiqib o‘rganish maqsadida, yuqorida ko‘rsatilgan manzilni aniqlash uchun Jizzah shahri, “Zargarlik” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi S. Meliboev va 27-uy boshqaruvchisi (domkom) Z. Usmonqulovlarga murojjat etildi, murojaatga javoban “Zargarlik” mahallasi, 27-uy, 14-xonadonda R. Inomov istiqomat qilmasligi va Norkuzieva Roziya Isokovna 1990 yildan buyon istiqomat qilishi va mulk egasi ekanligi aniqlandi. Mazkur ish yuzasidan dalolatnoma rasmiylashtirildi hamda fuqaro R. Inomov tomonidan yozilgan murojaatO’zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining
3-moddasiga asosan “anonim” deb hisoblash hamda ushbu Qonunning 29-moddasiga asosan uni ko‘rmay qoldilishi yuzasidan xulosa rasmiylashtirildi.

2. O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi “O’zbekiston milliy metrologiya instituti” Davlat Bekobod filiali tomonidan metrologik xizmatlar, shartnomaviy-huquqiy munosabatlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, idoraviy me’yoriy hujjatlarga rioya etilishi hamda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonining to‘g‘riligi va qonuniyligini tekshirish maqsaida xizmat tekkshiruvi o‘tkazildi va o‘rganishlar natijalariga ko‘ra “O’zMMI”DM Bekobod filiali xodimlariga nisbatan quyidagi jazo choralari qo‘llanildi.

- Bekobod filiali boshligi v.b B. Isroilovga nisbatan Uzbekioton respublikasi Mehnat kodeksiga asosan, "xayfsan" intizomiy jazo chorasi ko‘llanilgan;

- Bekobod filiali O’lchash vositalari ustidan metrologik tekshiruv bo‘limi boshlig‘i E. Yuldashev lavozimidan ozod qilinib shu bo‘limning 2-toifali mutaxassis lavozimiga o‘tkazildi;

- Bekobod filiali O’lchash vositalari ustidan metrologik tekshiruv bo‘limi 2-toifali mutaxassisi Sh. Usmonqulov bilan tuzilgan mexnat shartnomasi bekor qilingan;

- Bekobod filiali bosh xisobchisi M. Xoliqova Mexnat kodeksni 181- moddasi 2-bandi bilan noyabr oylik ish xaqidan 20% miqdorda jarima qo‘llangan;

- Xodimlar bo‘yicha bosh mutaxassisi N. Berdieva Mexnat kodeksni 181- moddasi 2-bandi bilan noyabr oylik ish xaqidan 20% miqdorda jarima qo‘llangan.